

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/6 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабиевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Умарханова Дилдора Шарипхановна

ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ
РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 9-14

Yakubova Iroda Bahramovna

MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA
MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR..... 15-26

Собирова Нозимахон

СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОВЕСТНОСТИ: РОЛЬ
ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ 27-36

Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли

ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ
ҲУҚУҚИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ 37-45

Турсунов Ойбек

ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА 46-53

Ismoilova Aziza Alisher qizi

MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY
EKSPERTIZA AHAMIYATI VA HUQUQIY MUAMMOLARI 54-60

Safarova Shaxlo Pulatovna

YANGI O'ZBEKISTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARISHLARINING INSON
HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI 61-67

Akbaralieva Mukhayo Karamatullo kizi

CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES 68-71

Valijonov Daler Dilshodovich

PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE
AND PRACTICE OF EU MEMBERS 72-76

Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li

DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLİYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY
MASALALARI 77-92

To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li

VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI 93-103

Хайдарова Хилола Анваровна

НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ... 104-109

Рахмонова Мохичехра Нодирбек кизи

СУВЕРЕНИТЕТ И ЮРИСДИКЦИЯ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ 110-118

Худайбердиева Шоҳиста Акмал қизи

ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК ВА

| | |
|---|---------|
| ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР | 119-129 |
|---|---------|

Alijonov Ayubjon Qobiljon o'g'li

| | |
|---|---------|
| RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH | 130-136 |
|---|---------|

Fayzulloyev Shohijaxon Jobirovich

| | |
|--|---------|
| XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR..... | 137-141 |
|--|---------|

Fayzullaeva Shakhlo Jumaniyaz kizi

| | |
|---|---------|
| ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO | 142-147 |
|---|---------|

Raimov Elbek Bahodirovich

| | |
|---|---------|
| OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI..... | 148-152 |
|---|---------|

Alieva Kamola Ravshanovna

| | |
|--|---------|
| OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN | 153-161 |
|--|---------|

Juraeva Asal

| | |
|---|---------|
| MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN | 162-166 |
|---|---------|

Rakhmonov Otabek

| | |
|--|---------|
| THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES | 167-171 |
|--|---------|

Айбек Якубов

| | |
|--|---------|
| ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ | 172-178 |
|--|---------|

Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li

| | |
|---|---------|
| MA'MURIY SUD Hujjatlarini ijroga qaratishning huquqiy tartibi | 179-184 |
|---|---------|

07.00.00 – TARIX FANLARI

Elmurotov Ortiq Oltiboy o'g'li

| | |
|--|---------|
| TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI..... | 185-192 |
|--|---------|

Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li

| | |
|---|---------|
| URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI | 193-199 |
|---|---------|

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Imamov Javokhir

| | |
|--|---------|
| LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN | 200-203 |
|--|---------|

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna

| | |
|--|---------|
| "TAHDID" FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI | 204-209 |
|--|---------|

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Bawetdinov Mukhammeddin

UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI 210-215

Соҳибова Зарнигор

ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА) 216-219

Jonridova Sanobar Sherali qizi

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLAR TADQIQI 220-224

Sharipova Mokhidil

PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH

LANGUAGE..... 225-231

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Abdurasul Abdurahimovich

PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D
AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH 232-237

Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY
QARASHLARI 238-245

Qalandarova Maxliyo

MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH
FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH 246-251

Чинқулова Гулмеҳра Баҳроновна

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ..... 252-258

Ibragimova Venera Azadovna

TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI..... 259-264

Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA
IFODALANISHI 265-269

07.00.00 – TARIX FANLARI-HISTORICAL SCIENCES**Received:** 10 August 2024**Accepted:** 15 August 2024**Published:** 25 August 2024*Article / Original Paper***ARCHITECTURAL TRADITIONS DURING THE PERIOD OF GREEK-MACEDONIAN RULE IN TURAN****Elmuratov Ortik Oltiboy ugli**

Junior researcher – Institute of History, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

E-mail: elmuratov7@gmail.com

Abstract. This article is devoted to the emergence of a new culture on the territory of Turan as a result of the process of assimilation of Greek and local styles in the architecture of the period of Greek-Macedonian dependence, as well as the history of local traditions. In a certain sense, we are trying to analyze some specific elements and aspects of this culture. The architecture of this period is illuminated on the basis of ancient written sources and finds obtained during archaeological excavations.

Keywords: Turan, hellenism, Alexandrian Oxus, gymnasium, theater, library, bathhouse, katoikia, agora, acropolis, frurion, bastion.

TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI**Elmuratov Ortiq Oltiboy o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqola Turon hududida yunon-makedonlarga qaramlik davri me'morchilikda yunon va mahalliy uslublarning assimiylatsiya jarayoni natijasida yangi madaniyatning paydo bo'lishi, shuningdek, mahalliy an'analar tarixiga bag'ishlangan. Bu madaniyatning ayrim o'ziga xos elementlari hamda jihatlarini ma'lum ma'noda tahlil qilishga harakat qilinadi. Bu davr me'morchiligi qadimgi yozma manbalar va arxeologik qazishmalarda qo'lga kiritilgan topilmalar asosida yoritiladi.

Tayanch so'zlar: Turon, ellinizm, Oks Aleksandriyasi, gimnaziya, teatr, kutubxona, hammom, katoykiya, agora, akropol, frurion, bastion.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N22>

Kirish. Yaqin va O'rta Sharqning turli davlatlari, Turon hududlarida katta xronologik davr yunon-makedon sulolalari siyosiy hukmronligi davri sifatida izohlanib, bu davr madaniyati ellinizm davri deb ataladi.

Makedoniyalik Aleksandr yurishlari natijasida keng miqyosda boshlangan ellinizm – yunonlar madaniyatining kirib kelishi Boxtar, Mari va Sug'd shaharlari, hunarmandchiligi va badiiy-amaliy san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. Me'morchilikda mahalliy qurilish an'analar bilan birgalikda yunon-makedon qurilish an'analar birga uchraydi. Me'morchilikda asosan xom g'isht asosiy qurilish materiali sifatida ishlatilgan. Shu bilan birga qumtosh, marmar va pishgan g'ishtlardan foydalanish boshlanadi. Shaharsozlikda kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak shakldagi aniq reja asosida barpo etilgan mudofaa devorlari bilan o'rab olingan shaharlar qurish ellin

shaharsozligi uchun xos bo'lgan. Devorlar pardoziga maxsus qorishmalar, alebastroli qoplamalar qo'llash kirib kela boshlaydi. Ayniqsa, yunon me'morchilik san'ati ta'sirida qurilgan saroylar, gimnaziya, ibodatxonalar me'morchilik jarayonida muhim bo'lgan.


Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qadimgi yunon geografi Strabon o'zining "Geografiya" asarida Aleksandr Boxtar va Sug'dda 8 ta shaharga [4; 11-b.] asos solganligi haqida ma'lumot beradi. Qadimgi yozma manbalar Turonning ba'zi hududlarida Aleksandr nomi bilan bog'liq uchta shahar: Aleksandriya Oksiana (Oks bo'yidagi Aleksandriya), Aleksandriya Marg'iyona (Marg'iyona Aleksandriyasi), Aleksandriya Esxata (Chekkadagi Aleksandriya) haqida ma'lumotlar beradi. Ulardan tashqari "katoykiyalar" – yunon harbiy istehkomlari manzilgohlari ham mavjud bo'lgan [13; 209 c].

Oks Aleksandriyasi geografik joylashuvi haqida turli fikrlar mavjud. Ularga ko'ra bu shahar Termiz o'rnida (V. Tarn) [14; 46-59 c.] yoki Afg'onistonning shimoli-sharqida Oyxonim shahar xarobalari o'rnida [Bernard, 1994. P. 92] va Termizdan 30 km shimoli-g'arbdagi Kampirtepa o'rnida bunyod etilgan [12; 52 c].

Turon hududida yunon-makedonlarga qaramlik davrida, Dalvarzintepa, Boxtar Darbandi, Kampirtepa, Uzundara qal'asi, Kurganzol, Shoshtepa, Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Tali-Barzu [14; 84 c.], Taxti Sangin va Oyxonim kabi shahar va qal'alar mavjud bo'lgan.

Naxshab vohasining yirik shahri bo'lgan Yerqo'rg'on bu davrda gippodam tizimi (shahar ko'chalari to'g'ri burchak ostida kesishgan, jamoat binolari va bozorlar uchun ajratilgan maydonlar bo'lgan qadimiy shaharlarni rejalashtirish usuli) bo'yicha qayta qurilish ishlari amalga oshiriladi. Lekin, odatiy yunon polis(yunoncha shahar)larida bo'lgani kabi agora (qadimgi grekcha – qadimgi yunon shaharlaridagi bozor maydoni bo'lib, u yerda fuqarolik yig'ilishlari o'tkazilgan), stadion, palestra va gimnazyalarni uchratmaymiz [16; 54-55 c.]. Ammo, Sug'dning markaziy shahri bo'lgan Afrosiyob qadimgi (antik) davr manbalarida ikki qismdan iborat ekanligi, akropol (qadimgi grekcha akros – yuqori, polis – shahar. Qadimgi yunon shaharlarining yuqori deb ataladigan baland va mustahkam qismi)ning mavjudligi, uning alohida devori borligi, qasr, qal'a va xandaq mavjudligi aniq qayd etilgan. Arxeologik tadqiqotlar ham buni tasdiqlaydi. Akropol shaharning shimoliy qismida joylashgan bo'lib, 19 ga maydonga ega. U shaharning qolgan qismidan katta devor bilan ajratilgan [19; 50-b.].

Muhokama. Amudaryo bo'yida joylashgan Kampirtepa tadqiqotlar natijalariga ko'ra harbiy-strategik sharoitni hisobga olib bunyod etilgan. Yuqoridagi taxminlarga ko'ra, Makedoniyalik Aleksandr davrida qurilgan Kampirtepada eng qadimgi yunon-makedon frurion (daryo o'tish joylari yaqinidagi strategik muhim joylarda joylashgan "qo'riqlash posti, qal'a". Boxtar va Sug'ddagi ma'lum bir aholi turar-joyining atamasi sifatida Arrianning "Aleksandr anabasisi" (IV. 16. 4) kitobida uchraydi)ni topilgani tadqiqotlarning asosiy yutug'i bo'lgan. Kampirtepa shahri hududida bastion (qal'a tarkibidagi eng muhim mudofaa inshooti bo'lib, old tomoni o'q otish uchun mo'ljallangan), port, mayoqli port va kemalar uchun ko'rfaz kabi qadimgi (antik) davr uchun xos me'morchilik inshootlari mavjud edi.



Kampirtepa frurionnining janubiy qismi. Grafik rekonstruksiya (Sh. Nurmuhamedova va O. Hikmatullayevlar bo'yicha).

Bu davrda mudofaa maqsadida bunyod etilgan qal'alarni asosan Boxtar o'lkasida kuzatishimiz mumkin. Ulardan biri bo'lgan Boxtar Darbandi Yunon-Boxtar podsholigi davrida bunyod etilgan chegara devori bo'lib, Turon hududida o'xshashi bo'lmagan qadimiy davr istehkomlarining noyob yodgorligi hisoblanadi. U Shimoliy-G'arbiy Boxtarni ko'chmanchi qabilalar hujumidan himoya qiluvchi mudofaa tizimining bir qismi edi. Shu bilan birga ikki yirik tarixiy va madaniy hududlar – Boxtar va Sug'd o'rtasida chegara, shuningdek, chegara devoridan 7 km g'arbda joylashgan Temir Darvoza orqali Hindistondan Turon hududiga olib boradigan o'ziga xos bojxona hududi edi [14; 116-117 c.].

Salavkiylar davlati hukmdori Antiox I davrida Boxtarning shimoli-g'arbiy chegaralarini nazorat qilish va dasht ko'chmanchilarining kutilmagan hujumlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida miloddan oldingi 3 yuzyillik boshlarida Uzundara qal'asi bunyod etilgan. Qal'a romb shaklida bo'lib, asosiy to'rtburchak qal'a, kengligi 9 m bo'lgan ichki galereyali qo'sh devorlar bilan o'ralgan uchburchak qal'a (filakterion) va 13 ta qal'a-minoralari bilan mustahkamlangan. Qal'a devorlarining umumiy uzunligi 1 km, maydoni 2 gektarga yaqin. Qal'aning tashqarisida savdo maydonchasi bor bo'lib, u yerda mahalliy aholi garnizon askarlariga zarur bo'lgan tovarlarni sotishgan. Qal'a qo'rg'onidan turli xil topilmalar (Salavkiy va Yunon-Boxtar hukumdorlarining tangalari, qadimgi (antik) davr sopol buyumlari, qurol-yarog'lar va xo'jalik buyumlari) bilan birgalikda Kampirtepa, Kurganzol va Oyxonim kabi shahar-qal'alarda aniqlangan sopol hammom ham mavjud edi [11; 10-12 c.].

Mudofaa maqsadida bunyod etilgan qal'alardan yana biri Kurganzol qal'a – frurionnidir. Tik qoyada joylashgan qal'a miloddan oldingi 4 – 2 yuzyilliklarda faoliyat yuritgan. Qal'aning kirish oson bo'lgan yagona tomoni 6 ta minora bilan himoyalangan. Taxminlarga ko'ra, bu yerda ellikka yaqin askar joylashgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, Makedonyalik Aleksandrning o'zi ushbu inshootni qurish uchun joy tanlagan va olti qal'alardan biri hisoblanadi [15; 3-6 c.]. Qal'a dumaloq, ichki diametri taxminan 35 metr. Qal'a devorlarining qalinligi 3-4 metr va balandligi 2 metrdan ortiq qismi saqlanib qolgan. Mudofaa inshootidan tashqari (6 ta minora) yashash va maishiy ehtiyojlar uchun bir nechta xonalar ham qurilgan. Qal'aning ichida suv havzasi ham


mavjud bo'lib, yog'ingarchilik vaqtida suv toshib ketishining oldini olish maqsadida drenaj tizimi yo'lga quyilgan. Qal'ada Turon ellin davri uchun noyob topilma – hammom (pishirilgan loydan yasalgan) mavjud edi. Ushbu qulaylik askarlarning gigienik tartibga amal qilishi yoki vaqtincha yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lgan shaxslarning qal'aga tashrif buyurgan bo'lishi mumkin [15; 33-34 c.]. Qal'a butun hayoti davomida shimoliy ko'chmanchi qabilalar tomonidan muntazam ravishda hujumga uchragan va unga ozmi-ko'pmi katta zarar yetgan.



Kurganzol qal'asining tiklangan 3D ko'rinishi.

Turonning qadimgi davri shaharlari mudofaasida burjlar va devor o'rtasidagi tor yo'lakchalar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ularda shaxmat kataklar shaklida joylashgan jangavor shinaklardan askarlar o'tirgan va tirk turgan holatda dushmanga qarshilik ko'rsatgan. Aldamchi shinaklar esa dushman askarlarini hujum qilishda chalg'itish, vahima o'yg'otish uchun xizmat qilgan.

Yunon-Boxtar podsholigi davrida Turonning janubiy hududlarida me'morchilik majmualari yuzaga keladi, shaharsozlik yangi davrni boshidan kechirdi. Me'morchilikda yangi g'oyalar rivojlandi, yangi-yangi shaharlar barpo etildi [5; 37-b.]. Oyxonim yodgorligi shu davr me'morchiligi o'zgarishlaridan dalolat beradi.



Oyxonim shahrining topografik rejasi.

Oyxonim shahri Amudaryoning chap qirg'og'ida Ko'kcha daryosi bilan tutashgan vodiya joylashgan. Arxeologlarning fikricha, shahar birinchi navbatda, sug'oriladigan vodiyni nazorat qilish, ikkinchidan, Badaxshon tog'-konlarida uchraydigan qimmatbaho lapis lazuriti manbai bo'lgan menereal resurslarga egallik qilish maqsadida, uchinchidan esa, shahar muhim harbiy-strategik avanpost – Sharqiy Baqrtiyani nazorat qilish maqsadida bunyod etilgan [8; 250 c.].

Oyxonimdagi saroy Yunon-Boxtar me'morchiligining yorqin namunasidir. Saroy devorlari xom g'ishtdan, ba'zan pishirilgan g'ishtlar asosida qurilgan. Tomlari barcha Sharq me'morchiligida bo'lgani kabi tekis loy suvoq qilingan. Kirish yo'lagi va me'moriy tayanch uchun toshlardan foydalanilgan. Ustunlarning asosi va barabanlari andozalar asosida ustaxonalarda kesib tayyorlangan. Doriy, Ioniy va Korinf ustunlari ko'pchilikni tashkil etadi. Jamoat binolari, gimnaziya, kutubxona va teatr yunon hayotini va aholining ehtiyojlarini aks ettirib beradi.

Gimnaziya yunon ta'limining aqliy va jismoniy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, bu ellinizm tarqalishida eng samarali usullardan biri bo'lgan. Gimnaziya Amudaryo qirg'og'i bo'ylab 350 m cho'zilgan binolarda joylashgan. Binolarning shimoliy 100x100 m qismi o'qitish uchun ajratilgan [2; 109 p.]. Saroyda joylashgan kutubxonaga (18,4x4,55 m) [8; 221 c.] faqat yuqori martabali amaldorlar kirishi mumkin bo'lgan [3; 260 p.].

Akropolning ichki qiyaligiga qarama-qarshi tarzda xom g'ishtlardan qurilgan teatr o'zida taxminan 5000 kishini sig'dira olgan. Teatrning diametri 42 m, balandligi esa 15 m bo'lgan. Teatr o'rindiqlari 35 qavat, balandligi 45-50 sm, eni 60-70 sm bo'lgan. Ular O'rtaer

dengizi hududidagi yunon orkestr (qadimgi grekcha orcusra – “raqsga tushish”. Qadimgi teatrda aktyorlarning chiqishlari uchun dumaloq maydonchadir. Asl ma’no “raqs uchun joy”).laridan farqli o’laroq xom g’ishtdan qurilgan. Shahar aholisi komediya va fojiali pesalar bilan tanish bo’lgan [8; 226-227 c.].

Oyxonimda yunon polislariga xos bo’lgan favvora, oqava suv tizimi, hammom va qurol-yaroq ombori binosi ham mavjud edi [10; 171-172 c.]. Amudaryo oqimiga parallel ravishda tosh devorlar orasidan olib kelingan suv yer ostiga yotqizilgan naychalar orqali favvoraga brogan [8; 225 c.]. Oyxonimda an’anaviy yunon uylarining markaziy hovlisi, uning atrofiga turar-joy xonalari va xizmat ko’rsatish xonalari joylashgan. Turar-joy xonalari ikki ustunli ayvon orqali old hovliga chiqilgan. Garchi uylar O’rtaer dengizi hududidagi uylardan farq qilsa-da, ular o’zlarida yunoncha xususiyatni – hammomlarni saqlab qoldi. Hammomlar uchun alohida joy ajratilgan. Alohida e’tibor bilan qurilgan hammomlar ikkita yoki uchta qo’shimcha xonadan iborat bo’lib, ular ketma-ket joylashgan. Pol qismi asosan tosh yoki mozaika(bir xil yoki turli xomashyo bo’laklaridan ishlangan tasvir, naqsh)dan iborat bo’lib, devorlari qizil gips bilan suvalgan. Hammomda kiyinish, yuvinish xonalari, shuningdek, issiq va sovuq suv bilan ta’minlaydigan qozonxona bo’lgan. Ushbu turdagi me’morchilik an’analari janubiy shahar va qasrlardagi zodogonlarning hashamatli uylarida, ayniqsa Buxtart o’lkasida ko’rishimiz mumkin [2; 111 p.].

Turonning yunon-makedonlarga qaram bo’lmagan Toshkent, Farg’ona va Xorazm hududlarida ham o’ziga xos mahalliy me’morchilik an’analari mavjud edi.

Miloddan oldingi 4 yuzyilliklarning oxirgi choragidan Sirdaryo orti yerlari, Toshkent vohasiga sug’dlik aholining ko’chib kelishi va Sug’d madaniyatining yoyilish jarayoni kechgan va miloddan oldingi 3 yuzyillikning boshlarida salavkiylarning Sirdaryo ortiga o’tganidan keyin ellin madaniyati an’analari tarqalgan [1; 125-b.]. Bu jarayonlar natijasida vohada ellin-sug’d madaniyati ta’sirida ilk shaharsozlik madaniyati shakllangan.

Vohaning qadimgi davr me’morchiligi mudofaa devorlar, mahobatli va qisman aholi uy-joy imoratlari orqali o’rganilgan. Qanqa va Shoshtepa manzilgohlarining mudofaa devori nisbatan yaxshi o’rganilib, ularning tavsifi atroflicha yoritilgan. Miloddan oldingi 3 yuzyillikning birinchi yarmida salavkiylar qo’mondoni Demodam Sirdaryodan kechib o’tib, bu yerda ma’bud Apollonga bag’ishlab altar (qurbongoh)lar qurdirgan [9; 49 c.]. Y.F. Buryakov bu yerda yunonlarning Yaksart orti Antioxiya shahri tashkil etilganligi va Toshkent viloyati Oqqo’rg’on tumanida joylashgan Qanqaning birinchi shahristoni (Shahriston I) o’rni bilan qiyoslagan [6; 106 c.].

Qurulishda kvadrat shaklli (38-40x 38-40x10-14 sm) xom g’ishtlar va paxsadan keng foydalanilgan. Vohaning qadimgi davr jamoatchilik (saroy va ibodatxona) imoratlarining qoldiqlari Oqto’be 2, Shoshtepa va Mingo’rik manzilgohlarida saqlangan.

Natija. Umuman, Toshkent vohasida shahar madaniyati dastlab Turonning janubiy o’troq dehqonchilik hududlari shaharsozlik an’analari asosida shakllanib, keyingi bosqichda mazkur an’analari ta’sirida rivojlangan, shuningdek, bu voha Sirdaryoning quyi oqimi hududining madaniy ta’sirida taraqqiy etgan. Qovunchi madaniyatining ikkinchi bosqichida (milodiy 1 – 4 yuzyilliklar) o’lkaning shaharsozligi mahalliy hududga xos taraqqiyot yo’lidan borgan.

Farg’ona vodiysidagi Mingtepa(Marhamat) shahri ham qadimgi davr shaharlari kabi mustahkam qal’a devorlari bilan o’ralgan, minoralar bilan muhofazalangan edi. Shu bilan birga,

qadimgi Xorazm shaharlarida ham, qadimgi Sharq, jumladan, Turonning boshqa hududlarida bo'lgani kabi, qal'alar, saroylar va ibodatxonalar mavjud edi.

Jonbosqal'a to'g'ri to'rtburchak shakldagi qal'a (200x170 m) bo'lib, devori har to'rt tomonidan o'ralgan. Darvoza shimoli-g'arbiy tomonda joylashgan. Qal'aning labirint shakldagi ikki qator devorlarining 9-10 m balandlikkacha keladigan qismi yaxshi saqlanib qolgan. Devorning pastki qismi 2 m bo'lib, asosi paxsa, undan yuqori qismi xom g'ishtdan tiklangan. Jonbosqal'a nafaqat Xorazmning, balki butun Turonning qadimgi davrdagi noyob arxeologik yodgorligidir. U qadimgi davrning boshqa yodgorliklarida kuzatiladigan mudofaa minoralarining yo'qligi bilan ajralib turadi. Shaharni kvartallarga – ikki qismga bo'lishning me'moriy echimi [Толстов, 1948. С. 115] nafaqat Xorazmga, balki ellin uslubi va Bixtar o'lkasi uchun ham xos edi.

Shuningdek, mahalliy me'morchilikka xos bo'lgan Qo'yqirilgan qal'a o'zining to'liq ochilgan inshootlari va o'ziga xos tuzilishi bilan ajralib turadi.



Qo'yqirilgan qal'aning aerofotosurati.

Dastlab bu joyda doira shaklidagi ikki qavatli markaziy inshoot qurilgan bo'lib, uning diametri 44,4 m, balandligi 8,5 m.ga borgan. Uning atrofi aylanasiga 2 qator paxsa va xom g'ishtdan tiklangan mudofaa devori bilan o'ralgan [17; 22 c.]. Aniqlangan materiallarga qaraganda, Qo'yqirilgan qal'a dastlabki bosqichda mustahkam muhofazalangan ibodatxona vazifasini bajargan, shuningdek, astronomik kuzatuvlar o'tkazilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Albatta, Xorazm shaharlari birinchi navbatda ma'muriy, siyosiy va diniy markazlar sifatida vujudga kelgan.

Xulosa. Turonning yunon-makedonlarga qaram bo'lgan hududlarida yunon uslubining kirib kelishi va mahalliy an'analar bilan qorishig'i natijasida ellin usubi shakllandi. Albatta, bu uslub yunon-makedonlar bosqini natijasida vayron bo'lgan yirik shaharlarni qayta qurish va yangidan shahar bunyod etishda namoyon bo'ldi. Bixtar va Sug'd o'lkalarining markaz hududlari me'morchiligida ellin uslublari ta'siri yuqori bo'lsa, chekka hududlardagi qishloq-qo'rg'onlar qurilishida mahalliy uslubdagi me'morchilik namoyon bo'ladi. Albatta, yunon-makedonlarga qaram bo'lmagan Toshkent, Xorazm va Farg'ona o'lkalarida me'morchilik mahalliy hududga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ibragimov R.Z. Toshkent vohasida arxeologiya tadqiqotlar tarixi (Tarixiy rekonstruksiya masalalari). Tarix fani bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent. 2024. – 155 b.
2. Paul Bernard. Part Two The Greek Kingdom of Central Asia // History of civilizations of Central Asia – II The development of sedentary and nomadic civilizations: 700 B.C. to A.D. 250 Unesco, Printed in France. 1994. – 575 p.
3. Rapin C. Les textes littéraires Grecs de la trésorerie d'Aï Khanoum // Bulletin de correspondance hellénique. Paris. 1987, vol. III. – 225-266 p.
4. Strabo. Geography, ed. A. Meinke, Leipzig, 1988-89. 11.11.4.
5. Абдуллаев Н. Ўзбекистон санъати тарихи. Тошкент. 2007. – 236 б.
6. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы города и городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент: Фан, 1982. – 212 с.
7. Пидаев Ш. К вопросу о локализации Александрии на Оксе // История материальной культуры Узбекистана. Т., Фан, 1992, Выпуск 26. – 46-59 с.
8. Пичикян И.Р. Культура Бактрии. Ахеменидский и эллинистический период. М., 1991. – 339 с.
9. Плиний Старший. Естественная история. Книга шестая. XVIII.49.
10. Попов А.А. Греко-бактрийское царство. Санкт-Петербург. 2008. – 240 с.
11. Редакционная коллегия... Бактрия. Том 1. Материалы археологических исследований эллинистической крепости Узундара в 2021 году. Москва. 2023. – 250 с.
12. Ртвеладзе Э.В. Александрия Оксианская – Кампыртепа: Город-Крепость на Берегу Окса. Т., 2019. – 59 с.
13. Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии Ташкент. 2005. – 288 с.
14. Ртвеладзе Э.В., Ртвеладзе Л., Ш. Пидаев... Выдающиеся памятники археологии Узбекистана. Ташкент. 2013. – 320 с.
15. Сверчков Л.М. Курганзол — крепость Александра на юге Узбекистана. Ташкент. 2013. – 138 с.
16. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Самарканд-Ташкент. 2000. – 519 с.
17. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М.-Л., 1948. – 336 с.
18. Толстов С.П., Вайнберг Б. И. Кой-Крылган-Кала – памятник культуры древнего Хорезма IV в. до н.э. – IV в.н.э. – Тр. ХАЭЭ, V. Москва. 1967. – 348 с.
19. Ширинов Т.Ш., Исомиддинов М.Х. Кўҳна Самарқанд археологияси. Самарқанд. 2002. – 160 б.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/6 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).